
Konstitutsiya islohotlariga bag'ishlangan muhokama bo'lib o'tdi

Viloyat axborot-kutubxona markazida konstitutsiyaviy islohotlarga bag'ishlangan muhokama o'tkazildi. Unda AK markazi hamda viloyat AOKB xodimlari qatnashdi.

Qonunchilik palatasi deputati Umidjon Jabborov Prezidentimizning Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvidagi ma'ruzasida ilgari surilgan fikrlar, konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shichalar kiritish ehtiyoji, Qonun loyihasini umumxalq muhokamasiga taqdim etishgacha bo'lgan jarayonlar, konstitutsiyaviy islohotlarning targ'iboti borasida batafsil gapirib o'tdi.

Deputat viloyat hududida aholi bilan o'tkazilayotgan uchrashuvlarga to'xtalib, Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarga xalqimiz befarq emasligi, Qonun loyihasi bo'yicha faol munosabat bildirayotganini ta'kidladi.

Viloyat AKM rahbari H.Shermatova, viloyat AOKB boshlig'i (v.v.b.) B.Omonzoda konstitutsiyaviy islohotlar bo'yicha fikr-mulohazalarini bildirishib, bu boradagi targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish, OAVning mas'uliyatini oshirish lozimligini ta'kidladilar.

2022-07-01 19:57:33